

**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI PAFOSI - MUSTAQILLIK****Eshmamatov Quvonchbek Baxtiyor o‘g‘li**

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Mamasaliyeva Muqaddas Ibadullaevna**

Annotatsiya: Abdulla Qodiriy shura hokimiyatining dastlabki yillarida nafaqat o‘zbek adabiyotidagi birinchi roman “O‘tgan kunlar” ni yaratda, shu bilan birga journalist sifatida ko‘plab publistik va xajviy asarlar yozgan. Buyuk adib tavalluding 120 yilligi nishonlanayotgan kunlarda uning ayni shu yo‘nalishda qoldirgan merosiga diqqatni ko‘tarishimiz benihoya ibratlidir

Roman XIX asr voqealarini o‘z ichiga olgan. Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibining fojiaiy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqealar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi. Boshqa yirik epik asarlardagi kabi “O‘tkan kunlar”da ham hikoyanavislikning ko‘p planliligi, ikkilamchi sujetlar mavjudligi, ketma-ket avj oluvchi va fojiali yakun topuvchi voqealar mavjud.

Ilg‘or fikrlarni olg‘a suruvchi Otabek obrazi romanning g‘oyaviy va kompozitsion markazi hisoblanadi. U savdodagi eskirgan iqtisodiy munosabatlarga qarshi chiqib, oila va turmush muammolariga yangi qarashga amal qiladi. Adabiyotshunoslar Abdulla Qodiriy o‘z qahramoni nomidan o‘zining shaxsiy o‘y-fikrlarini so‘zlagan, deb bilishadi.

Yozuvchi bir vaqtning o‘zida o‘zbek ayolining taqdirini ham kuzatib boradi. Ayrim an’analar, jumladan, ko‘pxotinlik, Kumush va Zaynabning o‘rtasida o‘limga olib boruvchi



xusumatga sabab bo‘ladi. Yozuvchi go‘zal, Otabekka bo‘lgan sevgi bilan ayrim qiyinchiliklarni yengib o‘tuvchi Kumush obrazini yaratadi. Biroq asar fojia bilan yakunlanadi: Kumushbibi kundoshi tomonidan zaharlab o‘ldiriladi, Otabek esa vatanini himoya qilaman deb vafot etadi. [1]

30-yillarda respublika hukumati Oybekka Qodiriy, Hamid Olimjonga Fitrat, Shayxzodaga Cho‘lpon borasida kitob yozish buyuriladi. Shunda Oybek “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” (1936) monografiyasini davrning ruhini hisobga olgan holda adib romaniga munosabat bildirgan. Avvalo, Oybek badiiy adabiyotning siru asroridan chuqur ogoh bo‘lganligi uchun ham romanning jozibasi, tansiq asarligiga, ayniqsa, adibning mahoratiga ta‘zim keltiradi. Biroq u Qodiriy haqidagi yozilayotgan kitob ekani, u nazorat ostiga olinishini bilgan holda uni zamon, jamiyat, sinfiy kurash nuqtai nazaridan baholashni mezon qilib olishi tayin edi.

“Sinflar mavjud bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy hayotning asosini sinfiy kurash tashkil qiladi.” Oybek ana shu kredodan kelib chiqib, romanga shunday baho bergan:

“O‘tgan kunlar” haqiqati bu qolipga tushmaydi. sinflar kurashi emas, yaxshilik ideyasi bilan yomonlik ideyasining kurashi kabi bir hol seziladi” [2]

Millati, elati birlashgan va ittifoqlashgan xalq - kuchli, qudratli. Bu hol Turkistonda bormidi? Yo‘q edi, bori ham tarqoq tarzda edi.

Qipchoq bilan qorachoponlar, Azizbek bilan Xudoyorxon, Toshkent bayonlari bilan Azizbek, boz ustiga Normuhammadi o‘rtasidagi ziddiyatlar ana shu tarqoqlikni tashkil etar edi. Bundan ham ashaddiysi xalqning burni ostidagi dushman – rus imperiyasi yerli xalqni oyoqosti qilgan raqib bo‘lib yotardi. Bundan tashqari oktabr to‘ntarilishi tufayli chor Rossiyasi zobitlari oyog‘i ostidan jafokor omma bosh ko‘targanday bo‘ldi, ammo orzu ushalmadi. Bularning hammmasi Abdulla Qodiriy ko‘nglida dardu alam va g‘ussa bo‘lib tug‘yon urardi. Ichki iztirobni yuvish uchun Turkiston umaro va fuzalolarining ittifoqligini



tiklash va buning natajasida rus zobitlariga qarshi his-tuygʻuni xalq koʻnglida uygʻotish masalasini ham badiiy obrazlarda koʻrsatish zaruru shart edi. Bu hurriyat bermagan inqilobga nisbatan bir kinoya ham edi.

Romanda koʻp ijtimoiy va hayotiy masalalar qalamga olingan. Shulardan biri millatni ozod koʻrish. Qodiriygacha va uning davrida biror sanʼatkor mustamlaka zugʻumi ostida xalqning kesakday ezilayotganini badiiy taʼsirchan qilib hech kim qalamga olgan emas.[3]

Otabekning tasavvurida yurt bamisoli ulkan qabrston, unga najot beruvchi kimsa yoʻq. U ish boshidan, idora usulidan gʻarazgoʻylar quvilib, xolis va yaxshi odamlarni qoʻyishni najot yoʻli deb biladi. Shu fikrning oʻzi Turkistonda ham jamiyatga najot yoʻlini izlayotgan ziyolilar borligini koʻrsatadi. Aks holda romandan inqilobchi qidirish oʻta bemaʼnilikdir.

Xususan, Yusufbek hoji isyonning yoʻlboshchisi boʻlib, oʻrtadan Azizbekni olib tashlash ham sabr kosaning toʻlgani va bunga malham izlovchilar borligidan dalolat. [4]

Romanda Qodiriy islohotchi boʻlib koʻrinadi, deguvchilar ham boʻldi. Bu gap ham aqlga sigʻmaydi. Qodiriy oktabr toʻntarilishidan soʻng ijtimoiy siyosiy oʻzgarishning katta qozonida qaynadi. U islohotchilik va inqilobchilikni juda yaxshi farqlar edi. Biroq roman voqealarining zirvagi inqilobchilikni emas, faqat islohotchilikni koʻtarardi. Sinfy kurashning oʻzi boʻlmagan joyda inqilob nima qilsin. Roman voqeasi va uning sodir boʻlgan davri faqat islohotchilik bilan emas, balki yurt mustaqilligi va xalq ozodligini orzu qilish bilan bogʻliq edi.

Yusufbek hoji qipchoq qirgʻini maslahati ishtirokchilariga burun ostidagi dushman haqida kuyinib, koʻz yoshini soqoliga oqizib, gapiradi.



Otabek o‘z yaqini bilan sayrdan qaytsa, Toshkent qipchoqlar murdasi bilan to‘la. Uyga kelib, otaga qarz salomini ham bermasdan ko‘rpaga o‘ranib, yotib oladi. Ota o‘g‘li gumonini zudlik bilan payqaydi. Ro‘baro‘ o‘tirib, o‘g‘liga:

“O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘liga tutqun qilib topshiruvchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la’nati albatta tushar, o‘g‘lim!”, deydi.

Donishmand otaning o‘g‘li padar o‘giti va hayotiy qarashini to‘g‘ri anglab yetdi. Keksa otaning aytganini, boshlagan ishini davom ettirish uchun sipoh bo‘lib, Avliyo ota ustidagi chor askarlarga qarshi to‘qnash kelib, mardlarcha, halok bo‘ladi. Otabek dono, oqil padarning izidan borib, el-yurt g‘ami, mustaqillik yo‘lida jonini qurbon qildi.

Asar pafosi el-yurt g‘ami, millatning ittifoqligi, yurtni dushmanlardan ozod qilib, mustaqillikni qo‘lga kiritish. Asar pafosi ham ana shu. Roman shu pafosda tahlil qilinsa, noreal da’volar, muhokama va munozaralar o‘z-o‘zidan izga tushib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti, darslik, -T.; 2001.
2. Jalolov A. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti,- T.;1996.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish,mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (davriy to‘plam, 1-son),-T.;1999.
4. Karimov N. va boshqalar, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi,-T.;1999.
5. Qosimov B va boshqalar, Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti,- T.; 2004.